



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 4-mart

104-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–62-son qarori ijrosi haqida”gi 98-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Yoshlarning tadbirkorlik g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yosh tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, startap va innovatsion loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, kasb-hunar, raqamli texnologiyalar hamda xorijiy tillarni chuqur egallashi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, shuningdek, yoshlar bandligini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta‘minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–62-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 98-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 98-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ–62-son qarori bilan:
Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Markaziy bank, Yoshlar ishlari agentligi hamda AT “Aloqabank”ning 2025–2027-yillarda “Yoshlar biznesi” dasturini (keyingi o‘rinlarda–Dastur) amalga oshirish o‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;
belgilanishicha, Dastur doirasida:

a) “Biznesga birinchi qadam” loyihasiga muvofiq o‘n sakkiz yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan ijtimoiy soliq to‘lagan o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga onlayn shaklda asosiy qarzdan 2 yilgacha va foiz to‘lovlaridan 3 oygacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga sug‘urta polisi ta‘minoti yoki uchinchi shaxs kafilligi asosida 100 mln so‘mgacha mablag‘lar quyidagi kredit mahsulotlari bo‘yicha imtiyozli mikroqarz sifatida ajratiladi:

tomorqalardan samarali foydalanish maqsadida ekin ekish va yetishtirish, chorvachilik, parrandachilik hamda qishloq xo‘jaligining boshqa yo‘nalishlaridagi faoliyatni amalga oshirish uchun;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirish, shu jumladan, hunarmandchilik jihozlarini sotib olish va aylanma mablag‘larni to‘ldirishga;

fan, san‘at va sport yo‘nalishlarida o‘z qobiliyatini namoyon etgan iqtidorli yoshlarni hamda frilanserlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash

uchun;b) “Yoshlar uchun ish o‘rinlari” loyihasi asosida yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti sifatida faoliyat yurituvchi yosh fuqarolarga, shuningdek, ta’ sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik subyektlarining yoshlarga kamida 20 ta ish o‘rni yaratishni nazarda tutuvchi loyihalariga 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga 5 mlrd so‘mgacha mablag‘lar quyidagi yo‘nalishlardagi kredit mahsulotlari bo‘yicha ajratiladi:

ishlab chiqarish asbob-uskunalarini xarid qilish, qurilish ishlarini amalga oshirish, asosiy vositalarni sotib olish (shu jumladan, “sanoat ipotekasi” asosida) hamda aylanma mablag‘larga;

tijorat maqsadlarida foydalanishga mo‘ljallangan avtotransport vositalarini xarid qilish uchun; savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini tashkil qilishga;

yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish, shu jumladan, raqamli texnologiyalar va xorijiy tillar kabi yo‘nalishlarda ta’lim xizmatlari faoliyatini tashkil etish uchun;

d) “Innovatsion yoshlar” loyihasi bo‘yicha venchur jamg‘armalari orqali yoshlar quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlanadi:

yoshlarning startup loyihalari uchun kapital investitsiyalar kiritish;

ilmiy tadqiqotlar, texnologik ishlanmalar va startaplar uchun infratuzilmani rivojlantirishga qarz mablag‘larini ajratish;

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borish uchun sharoit yaratish, shu jumladan, robototexnika yo‘nalishidagi zamonaviy asbob-uskunalar va laboratoriyalardan foydalanishda imtiyozli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

startup-inkubatorlar, texnoparklar va tadqiqot markazlarini yaratishga investitsiyalar kiritish;

xalqaro tanlovlar, konferensiyalar va ko‘rgazmalarda ishtirok etishni qo‘llab-quvvatlash;

e) yoshlarning zamonaviy va talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarga, shu jumladan, raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarga o‘qishi o‘rnatilgan tartibda moliyalashtirilishi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq Dastur doirasida:

imtiyozli kreditlarning kamida 30 foizi xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirilishi. Bunda o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish istagida bo‘lgan xotin-qizlarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirish kurslarida o‘qishiga ko‘maklashiladi;

imtiyozli kredit mablag‘lari uning hisobiga yaratiladigan ish o‘rinlarining kamida 50 foizida yoshlar ishga joylashtirilishi nazarda tutilgan holda ajratiladi;

imtiyozli kreditlarning taqdim etilishi shartlarini bajarmagan qarz oluvchilarga nisbatan kredit foiz stavkalari bozor stavkalariga o‘zgartirilishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda AT “Aloqabank”ning Dasturni moliyalashtirish bo‘yicha quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan AT “Aloqabank”ga 5 yillik imtiyozli davr bilan 10 yil muddatga 150 mln AQSH dollari ekvivalentidagi mablag‘larni milliy valyutada Markaziy bank asosiy stavkasi darajasida subordinar qarz sifatida bosqichma -bosqich AT “Aloqabank” talabnomalariga muvofiq ajratib borishi;

2025-2026-yillarda jami 50 mln AQSH dollarini teng ulushlarda AT “Aloqabank” ustav kapitaliga Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ulushini oshirish hisobiga yo‘naltirishi;

imtiyozli kreditlarni Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada ajratishi;

AT “Aloqabank” tomonidan hududlarda yoshlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalarni tijoratlashtirishga hamda moliyalashtirishga ko‘maklashish loyihasi (keyingi o‘rinlarda – “Startaplar” loyihasi) amalga oshirilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi e’tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining tegishli o‘rinbosarlari, tijorat banklari bilan birgalikda:

2025-yil 1-martga qadar “Startaplar” loyihasini amalga oshirish va loyihaning bo‘linmasini malakali kadrlar bilan to‘ldirish;

2025-yil 1-apreldan boshlab har oyda 1 ta “investor kun”larini tashkil etish hamda oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik dasturlarini yo’lga qo’yish;

2025-yil yakuniga qadar akseleratsiya va inkubatsiya dasturlarini muvaffaqiyatli yakunlagan startaplar sonini ko’paytirish;

2025-yil yakuniga qadar “Yoshlar biznes-inkubatori” markazini tashkil qilib, tadbirkorlik faoliyatini yangidan boshlagan yoshlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash hamda muvaffaqiyatli tadbirkor darajasigacha rivojlanishlari uchun qo’shimcha sharoitlar yaratish, jumladan ularga tayyor ofislarni ijaraga berish, buxgalteriya, marketing, eksport bozorlariga chiqish bilan bog’liq kompleks xizmatlarni ko’rsatish to’g’risidagi tashabbuslari ma’qullansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o’z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov